

Hujjat 16.06.2022 sanasi holatiga  
Amaldagi versiyaga o'tish

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### TOSHKENT SHAHRIDA TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA

Sanoatning yuqori texnologiyaga asoslangan tarmoqlari, sanoat va xo'jalik obyektlarini loyihalashtirish hamda qurish uchun ilg'or ta'lim standartlari darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi, "Jeneral Motors" korporatsiyasi va Turin politexnika universitetining (Italiya Respublikasi) Toshkent shahrida Turin politexnika universitetini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

2. Belgilab qo'yilsinki, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (keyingi o'rinlarda Universitet deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Turin politexnika universiteti (Italiya Respublikasi), "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi va boshqa manfaatdor xo'jalik birlashmalari hamda korxonalari tomonidan notijorat tashkilot sifatida tashkil etiladigan oliy ta'lim tashkiloti hisoblanadi.

*(2-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-noyabrdagi PF-3-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Turin politexnika universitetida (Italiya Respublikasi) qabul qilingan ta'lim dasturlariga hamda oliy ta'lim sifatiga qo'yiladigan umumiy e'tirof etilgan xalqaro talablarga, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining maqsad va vazifalariga muvofiq avtomobil, mashinasozlik va elektrotexnika sanoati, energetika, sanoat va xo'jalik obyektlarini loyihalashtirish hamda qurish korxonasi va tashkilotlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash Universitetning asosiy vazifasi hisoblansin.

*(2-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-noyabrdagi PF-3-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son)*

"Toshkent shahrida Turin politexnika universitetining tashkil etish bo'yicha Tashkiliy komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

Universitet Turin politexnika universiteti (Italiya Respublikasi) bilan tuziladigan servis va litsenziya bitimlari asosida 2009-yilning 1-sentabridan boshlab kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, 2-ilovaga muvofiq asosiy ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) bo'yicha barcha darajalardagi mutaxassislar, shu jumladan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlaydi, shuningdek kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshiradi;

abituriyentlarni qabul qilish va Universitet bitiruvchilarini attestatsiyadan o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda, Turin politexnika universitetida (Italiya Respublikasi) belgilangan tartib, talab va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

talabalarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda, Turin politexnika universiteti (Italiya Respublikasi) o'quv rejaları va dasturlari bo'yicha olib boriladi;

Universitet bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etiladigan Turin politexnika universitetining (Italiya Respublikasi) belgilangan namunadagi diplomi beriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Universitetning qabul parametrlari Turin politexnika universiteti (Italiya Respublikasi), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Universitet Vasiylik kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

*(3-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.06.2022-y., 07/22/279/0530-son)*

4. Turin politexnika universiteti (Italiya Respublikasi):

Universitetda ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalari, ilm-fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga asoslangan holda, o'quv-uslubiy rahbarlikni va o'quv jarayonini amalga oshirishni ta'minlashi;

Universitetning kutubxona fondini shakllantirish va uni zamonaviy o'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy-texnika adabiyotlari bilan to'ldirishga, o'quv-laboratoriya bazasi hamda zamonaviy axborot markazini tashkil etishga ko'maklashishi;

o'zbekistonlik yosh va istiqbolli ilmiy-pedagog kadrlarning malakasini, shu jumladan chet elda oshirishga ko'maklashishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Belgilansinki, Universitet faoliyatini moliyalashtirish:

talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun tushadigan mablag'lar, shu jumladan manfaatdor tashkilotlar tomonidan talabalar bilan tuzilgan kontraktlar asosida beriladigan grantlar;

Universitet Vasiylik kengashi qarorlari asosida jalb qilinadigan boshqa mablag'lar, shuningdek homiylik mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Vasiylik kengashining shaxsiy tarkibi [3-ildovaga](#) muvofiq ma'qullansin.

6. Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti barcha turdagi soliqlardan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha respublikamizga Universitetni rekonstruksiya qilish, jihozlash va uning faoliyatini ta'minlash uchun olib kelinadigan asbob-uskunalar, kompyuter va tashkiliy texnika, adabiyot, multimediyaga mahsulotlari, qurilish materiallari, jihozlar va moddiy-texnika resurslari bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari) 5 yil muddatga ozod etilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi va Universitet buyurtmanomalari bo'yicha Universitetning ushbu qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan chet ellik professor-o'qituvchilari va ma'muriy xodimlari, shuningdek ularning oila a'zolari uchun kirish vizalarini konsullik va boshqa yig'imlar undirilmasdan belgilangan tartibda rasmiylashtirishni ta'minlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi va Universitet buyurtmanomalari bo'yicha Universitetning chet ellik professor-o'qituvchilari va ma'muriy xodimlariga, ularning oila a'zolariga, davlat bojlari to'lashdan ozod etgan holda, ko'p martalik vizalar berilishi va uzaytirilishini, shuningdek vaqtinchalik yashash joyida vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazilishini va vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazish muddati uzaytirilishini belgilangan tartibda ta'minlasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

9. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O'zbekiston Respublikasiga chet ellik professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlarni jalb qilish uchun Universitetga, uni davlat boji to'lashdan ozod etgan holda belgilangan tartibda ruxsatnomalar berilishini ta'minlasin.

*(9-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi PF-5204-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.10.2017-y., 06/17/5204/0114-son)*

10. Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti quyidagi manzildagi tutash hududga ega binolar kompleksida joylashtirilsin: Toshkent shahri, Niyozov ko'chasi (Kichik halqa yo'li), 17-uy.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'n kun muddatda yuqorida ko'rsatilgan tutash hududga ega binolar kompleksini "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi balansiga, 2009/2010 o'quv yili boshlangunga qadar binolar kompleksini kompaniya tomonidan rekonstruksiya qilish va Universitetni zarur mebellar, jihozlar, o'quv va laboratoriya anjomlari,

kompyuter va boshqa tashkiliy texnika bilan zamonaviy talablarga muvofiq jihozlashni ta'minlash sharti bilan berishni nazarda tutadigan qaror qabul qilsin.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.M. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

[LexUZ sharhi](#)

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 23-iyuldagi 211-sonli "Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2009-yil 27-aprel,  
PQ-1106-son

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2009-yil 27-apreldagi  
PQ-1106-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Toshkent shahrida Turin politexnika universitetini tashkil etish bo'yicha Tashkiliy komissiya**

#### TARKIBI

- R.S. Azimov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari, Tashkiliy komissiya raisi
- U.U. Rozuqulov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari — "O'zavtosanoat" AK Boshqaruv raisi
- R.S. Qosimov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari
- N.M. Xanov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari — Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi
- A.P. Parpiyev — O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri
- J.A. Qo'chqorov — O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri o'rinbosari
- A.R. To'xtayev — O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi o'rinbosari
- A.X. To'xtayev — Toshkent shahar hokimi
- Sh.F. Yusupov — "O'zavtosanoat" AK Boshqaruv raisi o'rinbosari
- M. Kiaya — Turin politexnika universiteti prorektori  
Bernardino

Izoh: Tashkiliy komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

[LexUZ sharhi](#)

*1-ilova norasmiy tarjima.*

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2009-yil 27-apreldagi  
PQ-1106-son qaroriga  
2-ILOVA

### **Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida mutaxassislarni o'qitish va tayyorlash bo'yicha**

#### ASOSIY TA'LIM YO'NALISHLARI (MUTAXASSISLIKLAR)

1. Mashinasozlik texnologiyasi;
2. Avtomobil injiniringi;
3. Energetika;
4. Sanoat va fuqarolik (xo'jalik) qurilishi injiniringi;

5. Arxitektura va sanoat dizayni;

6. Axborot texnologiyasi va sanoatda ABT.

Izoh: Ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) ro'yxati tashkilotlarda kadrlarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqib, Iqtisodiyot vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Turin politexnika universiteti (Italiya Respublikasi) bilan kelishgan holda to'ldirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

[LexUZ sharhi](#)

*2-ilova norasmiy tarjima.*

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2009-yil 27-apreldagi  
PQ-1106-son qaroriga  
3-ILOVA

## **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Vasiylik kengashining**

### **TARKIBI**

U.U. Rozuqulov	— O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, Vasiylik kengashi raisi
A.X. To'xtayev	— Toshkent shahar hokimi
A.P. Parpiyev	— O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri
J.A. Qo'chqorov	— O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri o'rinbosari
N.E. Maksumov	— O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari
X.A. Muxitdinov	— O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktorining birinchi o'rinbosari
B.M. Teshaboyev	— "O'zbekenergo" DAK Boshqaruv raisi
A.F. Izbosarov	— "O'zeltexsanoat" uyushmasi raisi
Sh.F. Yusupov	— "O'zavtosanoat" AK Boshqaruv raisi o'rinbosari
Q.S. Sanaqulov	— Navoiy KMK bosh direktori
A.K. Farmanov	— "Olmaliq KMK" OAJ bosh direktori
A.S. Nurutdinov	— "O'zmetkombinat" AIB bosh direktori

Izoh:

1. Respublika komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

2. Vasiylik kengashi tarkibiga Vasiylik kengashi qarori bilan O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatdor xo'jalik birlashmalari va korxonalar rahbarlari, xorijiy davlatlar va chet el kompaniyalari vakillari kiritilishi mumkin

[LexUZ sharhi](#)

*3-ilova norasmiy tarjima.*

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 18-son, 222-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.10.2017-y., 06/17/5204/0114-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son; 16.06.2022-y., 07/22/279/0530-son)*

